

“KICKINA SHAHZODA” – RAMZLAR VA HAYOTIY HAQIQATLAR SARI

Gulnoza Habibjonova

Alisher Navoiy nomidagi Toshket davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
gulnozahabibjonova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asarining badiiy va falsafiy tahlili berilgan. Asardagi ramziy obrazlar, asosiy g‘oyalar, muallifning kattalar va bolalar olamiga bergan munosabati, hamda do‘stlik, muhabbat va mas‘uliyat kabi tushunchalarning badiiy talqini yoritilgan. Maqola asarning inson qalbiga yaqin jihatlarini ochib beradi va uni bolalar bilan bir qatorda kattalar uchun ham muhim saboqlar manbai ekanini tushuntiradi.

Kalit so‘zlar: ramzlar, falsafiy ertak, muhabbat, do‘stlik, mas‘uliyat, bolalar adabiyoti, badiiy tahlil, hayotiy saboq.

Kirish.

Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” nomli falsafiy ertak-romani 1943-yilda chop etilgan bo‘lib, bugungi kunga kelib jahon adabiyoti-ting eng mashhur va ko‘p o‘qiladigan asarlaridan biriga aylangan. Asar oddiy bolalar ertagidek tuyulsa-da, unda insoniyatning eng muhim qadriyatlari — muhabbat, do‘stlik, sadoqat, mas‘uliyat va hayotiy ma‘no chuqur falsafiy tarzda yoritilgan. “Kichkina shahzoda” — kichik hajmdagi, ammo katta mazmunli asar bo‘lib, unda muallif bola ko‘rinishidagi bosh qahramon orqali kattalar dunyosining nohaqliklarini, ma‘nosiz odatlarini tanqid qiladi. Asar syujeti cho‘lda samolyoti buzilib qolgan uchuvchining kichkina shahzoda bilan uchrashuvi orqali boshlanadi. Kichkina shahzoda boshqa sayyoralaridan kel-gan bo‘lib, u olgan saboqlarini uchuvchiga so‘zlab beradi. U boshidan kechir-gan voqealar orqali hayotda eng muhim narsalar ko‘z bilan emas, yurak bilan ko‘rinishini tushuntiradi.

Asarda ko‘plab ramziy obrazlar mavjud. Masalan, kichkina shahzoda yashagan asteroid (B-612) avvalo uning bolalarcha pok dunyosini, qolaversa har bir insonning o‘ziga xos olamini ifodalaydi. “Agar baobabni o‘z vaqtida payqab yulib tashlanmasa, keyin undan qutulishning iloji bo‘lmaydi. U butun sayyorani egallab oladi, bahaybat, quturgan tomirlari bilan uni har tomondan chirmab eza boshlaydi. Mabodo sayyora mo‘jazzina bo‘lsa-yu, baobablar son-sanoqsiz bo‘lsa, u holda ular uni tilka-pora qilib tashlashi ham hech gap emas.” Sayyorani begona o‘tlardan, baobab kabi zarali o‘simliklardan himoya qilish, vulqonlarni parvarish qilish – insonning o‘z ichki dunyosini yot narsalardan asrab - avaylashi, unga g‘amxo‘rlik qilishi kerakligini anglatadi. Muallif ichki illatlar, yomon

odatlar, beparvolik va shunga o'xshash ichki xa-vflarni baobab daraxtlari orqali ramz sifatida kelatiradi. Agar jamiyatdan ham shunday baobabga o'xshagan butun mamlakatni egallab oladigan bu illatlarni vaqtida yulib tashlamasa, u chuqur ildiz otib ketishi, keyin esa ulardan qutulish mushkul ekanligini tushuntirib o'tgan. Har tong inson avvalo o'zini tartibga solib, o'zini jamiyatdagi shunday illatlardan xalos bo'lib, o'zi yashayotgan atrof-muhitini ham yomon odatlardan tozalashi kerakligini, atrofni o'zgartirish uchun avvalo o'zini o'zgartirishi kerakligini ta'kidlab o'tadi. Bunday jumla tagida qanday ma'nolar yotganini nafaqat bolalar, balki kattalar uchun juda muhim hayotiy saboq ekanligini anglashimiz kerak.

U parvarish qilgan gul esa muhabbat timsoli bo'lib, inson qalbida uni asrashi va unga nisbatan mas'uliyatli bo'lishi kerakligi ta'kidlab o'tiladi. U gulga suv quyadi, uni parvarish qiladi, shamol tegmasin deb parda bilan to'sib qo'yadi, garchi tikoni bo'lsada, kechuqurun shisha qalpoq yopib qo'yadi. Qaysi sayyoraga borsa ham guli haqida o'ylaydi, qayerda bo'lsa ham feruza gulimga g'amxo'rlik qilishim kerak deb qayg'uradi. Bu inson har qanday ho-latda ham qalbidagi pok insoniy tuyg'ularni asrab –avaylashi zarurligidan dalolat beradi. Shuningdek, asarda tanholik, mas'uliyat, yo'qotish va baxt tushunchalari ham o'z ifodasini topgan. Shahzoda sayyorasidagi gulni tark etgani uchun afsus chekadi. U gulini sevganini, ammo sevgi e'tibor, sabr va fidoyilik talab qilishini keyinchalik tushunadi. Bu holat orqali muallif o'quvchiga hayotdagi har bir tanlov, har bir aloqaning ortida mas'uliyat bor-ligini eslatib, sevgi, baxt kabi tuyg'ularning muqaddasligini va unga erishish, har doim birga bo'lish qanchalar mushkul ekanligini yaqqol yoritib beradi.

Asardagi tulki esa aqlli, hayotiy tajribaga boy, o'zini qo'lga o'rgatish or-qali do'st tutinmoqchi bo'lgan ramziy obraz bo'lib, shahzodaga hayotiy haqiqatlarni anglashga yordam beradi. Uning "Odamlar bir haqiqatni unutdi-lar, ammo sen aslo yodingdan chiqarma: kimniki qo'lga o'rgatgan bo'lsang, uning taqdiriga hamisha javobgarsan. Unutma, feruza guling uchun ham javobgarsan!" degan hikmatli so'zlari faqatgina Shahzodaga emas, balki butun insoniyatga qarata aytilgandek tuyuladi. Tulki bu jumlasini bilan kichkina shah-zodaga hayotida kerak bo'ladigan muhim eslatmani berishi orqali asarning asosiy g'oyasi talqin qilinadi. Muallif bu asarda do'stlik tushunchasiga alo-hida urg'u bergan. Tulki bilan bo'lgan suhbat orqali shahzoda do'stlikning qiymatini tushunadi. Tulki uni "Do'stlashish uchun vaqt kerak. Bordi-yu sen meni qo'lga o'rgatsang, ikkimiz bir-birimizga kerak bo'lib qolamiz. Sen men uchun dunyodagi yagona odamga aylanasan. Men ham sen uchun dunyoda yagonaga aylanaman... deb do'st bo'lishga undaydi. Aslida muallif nomidan aytilgan bu jumla bolalarga samimiy do'stlik, pok munosabatlar qanday vujudga kelishini, va uning qanchalar qadrli ekanini tushuntirib beradi. Kich-kina shahzoda tashrif buyurgan sayyoralardagi hech qanday fuqarosi bo'lmagan, hokimiyatda so'zi

o'tmaydigan qirol, muxlisi bo'lmagan izzattalab shuhratparast, o'z qilmishlaridan uyalib ularni unutish uchun tinmay ichkilik ichuvchi piyonista, doimiy yulduzlarni hisoblab o'tiruvchi korchalon, char-og'bon sayyorasida nimalar borligini bilmaydigan geograf - bularning ham-masi o'z ramziy ma'nosiga ega va asarning badiiy jihatlarini yoritib berishga katta hissa qo'shgan.

Antuan de Sent-Ekzyuperi bu asar orqali kattalar dunyosining sun'iy va ma'nosiz tomonlarini tanqid qiladi. Asarda kattalar pul, lavozim, raqam kabi moddiy narsalarga haddan ziyod berilib ketgani tasvirlanadi. Kichkina shahzo-da esa hayotga bola nigohi bilan qaraydi: u oddiylikni, samimiyatni, mehrni qadrlaydi. Shu orqali muallif bolalar hayotga qanday sof va chin yurak bilan qarashini ko'rsatadi..

Xulosa qilib aytganda, "Kichkina shahzoda" asari nafaqat bolalar, balki kat-talar uchun ham muhim hayotiy saboqlarni o'z ichiga oladi. Bolalar uchun yozilgan bo'lsada, aslida kattalar uchun ham atroflicha o'ylab ko'riladigan masalalar, vaziyatlar mavjud. Asar o'quvchini vaziyatlarga tafakkur bilan yondashishga, haqiqiy qalb bilan his qilishga, insoniylikni unutmaslikka chaqiradi. Uning badiiy uslubi oddiy, lekin g'oyasi chuqur, obrazlari esa ram-ziy va o'zgacha jozibaga ega. Shuning uchun ham bu asar butun dunyo bo'ylab sevib o'qiladi va hali-hanuz o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Bir so'z bilan aytganda, bu asar faqat bolalarga emas, balki kattalar uchun yozilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.de Sent-Ekzyuperi. Kichkina shahzoda: Qissa. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019 - 88 b.
2. Karimov M. Adabiy matn tahlili asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Saidov B. Badiiy asarni o'rganish metodikasi. — Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2018.
4. Turaevich, A. M. (2022, January). LONELINESS AND ABSURDITY IS THE BASIS OF ALBER KAMYU'S CONCEPT OF ART. In European journal of science archives conferences series/Konferenzreihe der europäischen Zeitschrift für Wissenschaftsarchive (Vol. 2013, p. 30).
5. Asadov, M. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus' the stranger. American Journal of Philological Sciences, 5(03), 119-123.
6. Asadov, Mahmadiyor. (2022). Existential interpretation of the motive of "loneliness" in the work "the stranger" by Albert Camus. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 12. 1-6.